

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
4-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич

Модель компетенций и траектории повышения квалификации в профессиональном образовании в условиях внедрения искусственного интеллекта..... 5

Зокирова Нодира Каландаровна

Человеческий капитал и креативная экономика регионов Узбекистана оценка потенциала и точки роста..... 19

Усманов Анвар Саидмахмудович

Теоретический аспект устойчивого экономического роста..... 32

Мамадалиева Хафиза Холдаровна

Ўзбекистондаги демографик ўзгаришлар ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсири..... 43

Каримова Дилдора Мирсабитовна

Перспективы трансформации демографического потенциала узбекистана в демографический дивиденд..... 52

Саиджаббор Шоира Саидгаффор кизи

Экономическая самостоятельность женщин — историческая эволюция, изменение роли женщин на рынке труда и влияние социально-экономических факторов..... 60

Карабаева Гулнора Шарафитдиновна

Роль креативного сектора в обеспечении молодёжной занятости на рынке труда..... 69

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi, Muradova Alina Anvar qizi

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish istiqbollari..... 78

Кахрамонов Хуршидjon Шухрат угли

Современные подходы к обеспечению конкурентоспособности предприятий жилищно-коммунального хозяйства..... 85

Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-hatarlar..... 90

Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li

Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapital uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish..... 96

Ilyasova Barno Axmadovna

qtisodiyot tarmoqlarini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samaradorligini oshirish xususida..... 102

Matkarimova Intizor Atabaevna	109
<i>O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik.....</i>	
Khudoyberdiev Sardor Ismailovich	
<i>The impact of small entrepreneurship on the socio-economic development of regions in our country and its econometric analysis.....</i>	119
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
<i>Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat bozorining transformatsiyasi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlari.....</i>	129
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
<i>Atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning strategik ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish istiqbollari.....</i>	134
Egamnazarov Khusniddin Fakhriddin ugli	
<i>Integrating international experience into sustainable tourism development: evidence from Uzbekistan.....</i>	141
Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi	
<i>Digitalization of the banking sector in Uzbekistan: drivers and implications for financial stability.....</i>	152
Nasirova Nargiza Tursunpulatovna	
<i>Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....</i>	163
Shaxidova Dilafruz Muxtarovna	
<i>Kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish holati: uning muammolari va yechimlari.....</i>	172
Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna	
<i>The algorithm for forming transfer prices in trade enterprises and their role in segment reporting.....</i>	180
Batirov Farxad Bakitovich	
<i>Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish orqali zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	189
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
<i>Ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish istiqbollari.....</i>	194
Alimov Fazliddin Xalimovich	
<i>Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatini iqtisodiy- statistik tahlili.....</i>	201
Bahriddinova Muazzam Azam qizi	
<i>XItoy davlatida kambag'allikni qisqartirish siyosati.....</i>	209

INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY KAPITAL UCHUN INSTITUTIONAL SHAROITLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

tayanch doktoranti

@azizabdurahmonov65@gmail.com

+998 90 212 66 88

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida investitsion muhitning institutsional omillari chuqur tahlil qilinadi. Xususan, huquqiy barqarorlik, soliq va bojxona imtiyozlari, davlat boshqaruvining shaffofligi, korruptsiyaga qarshi mexanizmlar, investorlar ishonchining mustahkamlanishi kabi mezonlar asosida mamlakatdagi mavjud institutsional shart-sharoitlarning ustun va zaif jihatlari baholanadi. Maqolada xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay investitsion muhitni shakllantirishda huquqiy aniqlik, institutsional uyg'unlik va raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlarining ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi. Muallif xalqaro reytinglar va indikatorlar asosida mavjud holatni tahlil qilib, mamlakatda xorijiy kapital oqimini barqaror ravishda oshirish uchun zarur bo'lgan taklif va chora-tadbirlarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: investitsion muhit, institutsional islohotlar, xorijiy investitsiyalar, huquqiy barqarorlik, soliq imtiyozlari, korruptsiyaga qarshi kurash, xalqaro reytinglar, investor ishonchi, raqamli boshqaruv.

УЛУЧШЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА И УЛУЧШЕНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЙ ДЛЯ ИНОСТРАННОГО КАПИТАЛА

Абдурахмонов Азизбек Акрам оглы

Поддерживающий докторант

Самаркандского института экономики и сервиса

Аннотация. В статье представлен углубленный анализ институциональных факторов инвестиционной среды в процессе привлечения иностранных инвестиций в Узбекистан. В частности, оцениваются сильные и слабые стороны существующих в стране институциональных условий на основе таких критериев, как правовая стабильность, налоговые и таможенные льготы, прозрачность государственного управления, антикоррупционные механизмы и

укрепление доверия инвесторов. В статье подчёркивается важность правовой определённости, институциональной согласованности и систем цифрового управления для создания благоприятной инвестиционной среды для иностранных инвесторов. Автор анализирует текущую ситуацию на основе международных рейтингов и индикаторов и предлагает предложения и меры, необходимые для устойчивого увеличения притока иностранного капитала в страну.

Ключевые слова: инвестиционный климат, институциональные реформы, иностранные инвестиции, правовая стабильность, налоговые льготы, борьба с коррупцией, международные рейтинги, доверие инвесторов, цифровое управление, льготы, борьба с коррупцией, международные рейтинги, доверие инвесторов, цифровое управление.

IMPROVING THE INVESTMENT CLIMATE AND IMPROVING INSTITUTIONAL CONDITIONS FOR FOREIGN CAPITAL

Abdurahmonov Azizbek Akram oglu

Supporting doctoral student
of the Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the institutional factors of the investment environment in the process of attracting foreign investment in Uzbekistan. In particular, the strengths and weaknesses of the existing institutional conditions in the country are assessed based on criteria such as legal stability, tax and customs privileges, transparency of public administration, anti-corruption mechanisms, and strengthening of investor confidence. The article emphasizes the importance of legal certainty, institutional coherence, and digital governance systems in creating a favorable investment environment for foreign investors. The author analyzes the current situation based on international ratings and indicators and puts forward proposals and measures necessary to sustainably increase foreign capital inflows into the country.

Key words: investment climate, institutional reforms, foreign investments, legal stability, tax incentives, fight against corruption, international ratings, investor confidence, digital governance.

Globalashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida har bir mamlakat milliy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy sarmoyalarning ahamiyatini chuqur anglamoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalar — nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki ilg'or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlar bilan bog'lovchi strategik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, investitsion muhitni takomillashtirish, ya'ni xorijiy kapital

oqimi uchun qulay institutsional va normativ-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir institutsional mexanizmlarni tubdan qayta ko'rib chiqishga, tadbirkorlik muhitini liberallashtirishga va investorlar huquqlarini kafolatlashga qaratilgan. Ammo mavjud qonunchilik tizimi, investorlar bilan ishlaydigan institutlarning muvofiqlashtirilmaganligi, sud-huquqiy sohadagi zaifliklar investitsion faollikni cheklab kelmoqda. Shu sababli, xorijiy kapitalni jalb qilish jarayonida institutsional islohotlarning izchil amalga oshirilishi zarur hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda investitsion muhitni baholashda asosan quyidagi yo'nalishlar hisobga olinadi: huquqiy kafolatlar tizimi, soliqqa tortish sharoitlari, yer va infratuzilma bilan ta'minlanganlik, moliyaviy tizimning ochiqqligi, korruptsiyaga qarshi kurash mexanizmlari, shartnomalarning ijro etilishi va investor huquqlarini himoya qilish samaradorligi. Mazkur mezonlar bo'yicha O'zbekistonning bugungi holati tahlil qilinar ekan, quyidagi jihatlar ajralib turadi.

1. Huquqiy barqarorlik va investitsion xavfsizlik.

Huquqiy muhit – xorijiy investorlar uchun eng muhim institutsional omillardan biridir. Xususan, xorijiy sarmoyador mamlakatdagi investitsiya qonunchiligining mustahkamligi, huquqiy barqarorlik darajasi, bitimlar ijrosi va mulk huquqlari himoyasiga alohida e'tibor qaratadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun (2020) qabul qilinib, xorijiy investitsiyalar kafolatlari qonuniy mustahkamlangan. Biroq huquqni qo'llash amaliyoti, shartnomalar ijrosi va investorlar bilan bog'liq nizolarni hal etish jarayoni hanuz zamon talablari darajasida emas.

Masalan, sud tizimining iqtisodiy nizolarni tez, adolatli va xolis hal qilishdagi samarasizligi, xalqaro arbitraj qarorlarining ijro mexanizmlari noaniqligi xorijiy investorlar uchun yuqori huquqiy risklarni yuzaga keltirmoqda. Bundan tashqari, qonunchilikdagi tez-tez o'zgarishlar va normativ-huquqiy hujjatlar interpretatsiyasidagi farqlar investorlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, barqaror, prognoz qilinadigan va investorga yo'naltirilgan huquqiy muhitni ta'minlash zarur.

2. Institutsional infratuzilma.

Investitsion faoliyatda qatnashuvchi davlat va nodavlat tashkilotlar, ularning funksional muvofiqligi va vakolatlarining aniq chegaralanishi muhim institutsional omil sanaladi. O'zbekistonda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, "Yagona darcha" markazlari, erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari,

Investitsiya kompaniyalari kabi ko'plab institutlar faoliyat yuritmoqda. Biroq ular o'rtasidagi vakolatlar chigalligi, ma'lumotlar uzluksizligining yetishmasligi va raqamlashtirish darajasining pastligi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Investorlarga kerakli hujjatlarni tayyorlash, ruxsatnomalarni olish, yer ajratish, loyihalarni muvofiqlashtirish kabi jarayonlarda takrorlanish va byurokratik to'siqlar mavjud. Bu esa, umumiy investitsion siklning cho'zilishiga olib keladi. Shu bois, institutsional tuzilmalarni bir markazga birlashtirish, funksiyalarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish dolzarb vazifadir.

3. Soliq va bojxona sohasidagi imtiyozlar.

Xorijiy investorlar uchun soliqqa oid shart-sharoitlar — ularning daromadlarini prognoz qilish, risklarni baholash va investitsiya strategiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. O'zbekistonda xorijiy investorlar uchun maxsus iqtisodiy zonalarda bir qator soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda. Biroq bu imtiyozlarning huquqiy asoslari ko'pincha qisqa muddatli, ularning amal qilish muddati yoki bekor bo'lish holatlari oldindan aniq belgilanmagan.

Masalan, soliq stavkalari, aksiz soliqlari, bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq siyosatdagi tezkor o'zgarishlar xorijiy investorlar uchun rejalashtirishda noqulayliklar tug'diradi. Bundan tashqari, soliq organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni turlicha talqin qilinishi holatlari ham investorlar huquqlarini kafolatlashda noaniqlik tug'diradi. Shu nuqtai nazardan, investitsion imtiyozlarning huquqiy barqarorligini oshirish, shaffoflikni kuchaytirish va avtomatlashtirilgan deklaratsiya tizimlarini keng joriy etish zarur.

4. Korruptsiyaviy xavf va shaffoflik.

Investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bu — korruptsiya hisoblanadi. "Transparency International" indeksiga ko'ra, O'zbekiston hali ham korruptsiya xavfi yuqori bo'lgan davlatlar qatorida qolmoqda. Ayniqsa, investorlar uchun yer ajratish, qurilishga ruxsat olish, litsenziyalash, bojxona va soliq rasmiylashtiruvi kabi bosqichlarda norasmiy to'lovlar va ortiqcha talablar mavjud. Korruptsiyaga qarshi kurash institutlarining yetarli mustaqillikka ega emasligi, jazo muqarrarlari tamoyilining to'liq ishlamasligi, davlat xizmatlarida norasmiy munosabatlarning mavjudligi investitsiya xavfsizligini zaiflashtiradi. Shu bois, investitsion jarayonlar ochiqligini ta'minlash, elektron litsenziyalash, davlat xaridlari va tender jarayonlarini shaffof onlayn platformalarga o'tkazish

talab etiladi. Shuningdek, investorlarga xizmat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslar javobgarligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur.

5. Investorlarning institutsional ishonchi.

Institutsional muhitni yaxshilashdagi asosiy mezonlardan biri — bu investorlar ishonchi va ularning mamlakat imijiga bergan bahosidir. “Doing Business”, “Global Competitiveness Index”, “World Governance Indicators” kabi xalqaro reytinglarda O'zbekiston o'z pozitsiyalarini nisbatan yaxshilayotgan bo'lsa-da, xorijiy investorlar hanuzgacha ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoqda.

Buning asosiy sabablari — uzoq muddatli kafolatlarning yetishmasligi, investitsion shartnomalarning bajarilishiga oid muammolar, huquqiy asoslarning kam prognozlanishi va tegishli infratuzilmaning ba'zi hollarda mavjud emasligi bilan bog'liq. Shuningdek, investorlarning vakolatli idoralar bilan bevosita aloqasi cheklangani, xorijiy korxonalar uchun qo'llaniladigan turli tartib-taomillarni yetarlicha bilingan, muvofiqlashtirilgan tilda taqdim etilmasligi ham ishonchni pasaytiruvchi omillardandir.

Shu sababli, mamlakatning xalqaro investitsion imijini mustahkamlash uchun barqaror institutsional muhit, xalqaro arbitraj tamoyillariga asoslangan nizolarni hal etish tizimi va xorijiy investorlar bilan ochiq muloqot maydonlarini yaratish zarur.

Xulosa.

O'zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatning jadallashuvi, xorijiy kapital oqimini jalb etish va ularning samaradorligini oshirish jarayoni zamonaviy talablar darajasida rivojlanmoqda. Biroq chuqur tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy investorlar uchun qulay institutsional muhitni shakllantirish yo'lida hali bir qator tizimli muammolar mavjud.

Birinchidan, huquqiy barqarorlik va investitsion xavfsizlik darajasining nisbatan pastligi, shartnoma erkinligi va ijro tizimining institutsional zaifligi xorijiy investorlar ishonchiga to'liq javob bera olmayapti. Ikkinchidan, investitsion infratuzilma bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'rtasidagi vakolatlar chegaralanmagan, bu esa byurokratik to'siqlarni kuchaytiradi va qaror qabul qilishni sekinlashtiradi.

Uchinchidan, soliq va bojxona siyosatining beqarorligi, amaldagi imtiyozlarning huquqiy kafolatlanmaganligi investitsion risklarni oshiradi. To'rtinchidan, davlat boshqaruvi tizimidagi korruptsiyaviy xavflar va xizmatlar ko'rsatishdagi shaffoflik yetishmasligi xorijiy kapitalni jalb qilish jarayonini murakkablashtiradi.

Va nihoyat, xorijiy investorlar ishonchini shakllantirish, mamlakat investitsion imijini xalqaro darajada mustahkamlash uchun strategik yondashuv

zarur: xalqaro standartlarga mos sud va arbitraj mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ni kengaytirish, va institutsional innovatsiyalarni joriy qilish orqali barqaror muhit ta'minlanmog'i lozim.

Shunday qilib, O'zbekistonda investitsion muhitni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun institutsional islohotlarning chuqurlashtirilishi, qonunchilikning barqarorligi, iqtisodiy erkinlik va moliyaviy shaffoflik darajasining oshirilishi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O'zbekiston, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. "Investitsion muhitni takomillashtirish strategiyasi – 2022–2026 yillar." – Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar to'g'risida"gi Qonuni. – Qabul qilingan sana: 25.12.2019 y.
4. Jahon banki. *Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2020.
5. OECD. *Foreign Direct Investment for Development: Maximising Benefits, Minimising Costs*. – Paris: OECD Publishing, 2021.
6. Sultonov X. "Investitsion muhit va institutsional islohotlarning o'zaro bog'liqligi." // *Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali*, №4, 2023. – B. 35–41.
7. Karimov N. "Chet el investitsiyalarini jalb qilishda institutsional xavfsizlik muammolari." // *Moliyaviy tahlil va amaliyot*, №3, 2022. – B. 47–52.
8. Abdurahmonov Q. X. *Makroiqtisodiyot*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 456 b.
9. Osiyo taraqqiyot banki. *Uzbekistan Country Diagnostic Study 2023*. – Manila: ADB, 2023.
10. UNCTAD. *World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All*. – New York and Geneva: United Nations, 2023.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

